



## THE ROLE OF WOMEN IN THE DIPLOMATIC SYSTEM OF SOUTH KOREA

*Nozima Ergasheva*

*3rd-Year Student, International Relations Program,  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** progressive women's movements, CEDAW, Women, Peace and Security (WPS), Official Development Assistance (ODA), Action Plan, female diplomats in public diplomacy, female diplomats index.

**Received:** 21.06.26

**Accepted:** 22.06.26

**Published:** 23.06.26

**Abstract:** This article examines the role of women in the diplomatic system of the Republic of Korea, their participation in the implementation of foreign policy, and their level of representation within the diplomatic corps. It also explores the state policies aimed at ensuring gender equality in South Korea, the increasing share of women within the Ministry of Foreign Affairs, and their activities in the international arena. The study reveals the contribution of female diplomats to the development of the Republic of Korea's modern diplomacy, the strengthening of the country's international image, and the expansion of multilateral cooperation.

## JANUBIY KOREYA DIPLOMATIK TIZIMIDA AYOLLARNING O'RNI

*Nozima Ergasheva*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
"Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi 3-kurs talabasi  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** progressiv ayollar harakatlari, CEDAW, "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik", ODA, "Harakatlar rejasi", ayol diplomatlar xalq diplomatiyasida, ayol diplomatlar indeksi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Koreya Respublikasi diplomatik tizimida ayollarning o'rni, ularning tashqi siyosatni amalga oshirishdagi ishtiroki hamda diplomatik korpustagi vakillik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Janubiy Koreyada gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, Tashqi ishlar vazirligi tizimida ayollar ulushining ortib borishi va ularning

xalqaro maydondagi faoliyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida ayol diplomatlarning Koreya Respublikasining zamonaviy diplomatiyasini rivojlantirish, mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirishdagi hissasi ochib beriladi.

---

## РОЛЬ ЖЕНЩИН В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЮЖНОЙ КОРЕИ

*Нозима Эргашева*

*Студентка 3 курса направления «Международные отношения»*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Ўзбекистон*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** прогрессивные женские движения, CEDAW, «Женщины, мир и безопасность», официальная помощь в целях развития (ODA), «План действий», женщины-дипломаты в публичной дипломатии, индекс женщин-дипломатов.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль женщин в дипломатической системе Республики Корея, их участие в реализации внешней политики, а также уровень их представительства в дипломатическом корпусе. Кроме того, рассматриваются государственная политика Южной Кореи, направленная на обеспечение гендерного равенства, рост доли женщин в системе Министерства иностранных дел и их деятельность на международной арене. В результате исследования раскрывается вклад женщин-дипломатов в развитие современной дипломатии Республики Корея, укрепление международного имиджа страны и расширение многостороннего сотрудничества.

---

**Kirish.** So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida dunyo siyosiy va diplomatik tizimida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu o'rinda, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ayollarning diplomatik faoliyati ham yildan-yilga oshib bormoqda. Bu sohada o'zining salohiyati va bilimiga ishongan ayol diplomatlar ko'rsatkichi ayrim davlatlarda hatto erkaklarniki bilan tenglashgan. Eski qarashlar, jumladan, diplomatiya faqat erkaklar ishi, ayollar siyosatda to'g'ri qarorlar qabul qilishga va muzokaralar olib borishga o'z qismini qilib degan bir tomonlama fikrlarni yengib o'tgan holda diplomatiyada yuksak natijalariga erishgan ayollar soni kam emas. Bugungi kunga kelib ayollar muzokaralarni belgilangan qoidalar orqali olib borishni udallabgina qolmasdan, uni sarmazmun va ko'tarinki ruhda o'tkazishga, tomonlar orasida barqaror ishonch muhitini

yaratishga hissa qo‘shishmoqda. Ayollar o‘z tashabbus va g‘ayratlari bilan jahon siyosatida o‘z o‘rinlarini qayta belgilashmoqda. Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha diplomatiyada ayollar ulushi BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan statistik tahliliy ma‘lumotlar bu masalada ayollarning qanchalik ildamlab borayotgini ko‘rsatadi.

2024-yilgi “Ayollar diplomatiyada” indeksiga ko‘ra, global miqyosda elchilar va BMTdagi doimiy vakillarning atigi 21 foizini ayollar tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 2023-yildagi 20,5 foizlik natijaga nisbatan sekinroq o‘shishni anglatadi. Shuningdek, mintaqaviy tahlillar Amerikada ayollar ulushi eng yuqori darajada – 28 foiz ekanini ko‘rsatadi. Yevropada ushbu ko‘rsatkich 27% ni, Afrikada 20% ni tashkil etgan. Osiyo 14% hamda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida 10% esa ayollar vakilligi jahon o‘rtacha darajasidan sezilarli darajada pastligicha qolmoqda. Lekin davlatlar kesimida Kanada 53%, Shvetsiya 51% va Finlyandiya 50% diplomatik lavozimlarda gender tengligiga erishgan mamlakatlar sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, Kosta-Rika 48%, Yangi Zelandiya 47,5%, Yamayka 47% va Filippin 46% ham ayol elchilar ulushining o‘shishi bilan ajralib turdi. Tadqiqot natijalari G20 davlatlarida ayol elchilar ulushi 2018-yildagi 16,7% dan 2024-yilda 21% ga yetganini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqida ushbu ko‘rsatkich 30 foizni tashkil etgan bo‘lsa, BRICS davlatlarida ayollar ulushi 14 foiz darajasida saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, Antigua va Barbuda 98%, Beliz 64%, Barbados 63% hamda Mavrikiy 58% ayol elchilarni eng yuqori ulushda qabul qilayotgan davlatlar sifatida qayd etilgan [1]. Mazkur ma‘lumotlar diplomatik faoliyatda ayollar ko‘rsatkichi ayrim joylarda past bo‘lsa ham, umumiy o‘shish mavjud ekanligini anglatadi.

Xususan, Koreya Respublikasida ham so‘nggi yigirma yil ichida ayollarning diplomatik sohadagi faolligi ortgan bo‘lib, ular jamiyatdagi siyosiy o‘rinlarini ko‘tarishga harakat qilishmoqda. Ayollar o‘z siyosiy faoliyatini jadallashtirish maqsadida turli xil tashkilot va uyushmalarni tuzishmoqda, huquqiy shartnoma dasturlari va tashabbuslarini ilgari surishmoqda, oddiy norasmiy diplomatiya, xususan, xalq diplomatiyasidan tortib, rasmiy diplomatik muzokaralargacha kirib borishmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mazkur maqolada Janubiy Koreyada ayollarning diplomatiyadagi o‘rni va gender siyosatini yorituvchi ilmiy hamda rasmiy manbalardan foydalanildi. Xususan, amerikalik tadqiqotchi Sara Channing 2024-2025-yillardagi “Diplomatiyada ayollar indeksi” hisobotida diplomatik xizmatlarda ayollar vakilligi xalqaro miqyosda tahlil qilingan bo‘lib, Koreya Respublikasining bu boradagi ko‘rsatkichlarini baholashda muhim manba sifatida xizmat qildi.

Janubiy koreyalik olim Kim In Ayening “Janubiy Koreyada gender siyosatining rivojlanishi va xususiyatlari: qiyosiy tahlil” maqolasida mamlakatdagi gender siyosatining shakllanishi va

rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Vyetnamlik olim Tran Zan Haning “XXI asrda ayollarning diplomatiyadagi o‘zgarayotgan roli: Janubiy Koreya misolida” maqolasida ayollarning diplomatik faoliyatdagi o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilingan.

Koreya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy ma’lumotlari hamda “Koreya Respublikasining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan harakatlar rejasi” hujjati davlat siyosatida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘ldi. Shuningdek, Park Ji Von va Cho He Ryonning jurnalistik-tahliliy maqolalari Koreya diplomatik xizmatida ayollar sonining ortib borayotgani, biroq rahbarlik lavozimlarida ularning ulushi hali ham cheklanganligini ko‘rsatuvchi zamonaviy statistik ma’lumotlarni taqdim etdi.

Mazkur maqolada Janubiy Koreya diplomatiyasida ayollarning o‘rni va rolini tahlil qilishda qiyosiy-siyosiy tahlil, institutsional tahlil hamda gender yondashuvi metodlaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Ayollarning siyosiy faoliyatgacha yetib kelishlari bir qancha yillar davomida amalga oshgan. Eng avvalo, 1980-yillardan boshlab Koreya Respublikasi demokratik islohotlarni boshlaganidan keyin progressiv ayollar harakatlari kengaya boshlagan va ushbu demokratlashtirish jarayonlarda ayollar ishtiroki keyingi siyosiy faoliyatlar uchun yo‘l ochib bergan. Shuningdek, 1980-yillar atrofida global feminizm harakati kengaydi hamda BMT tomonidan “Ayollar o‘n yilligi” e’lon qilingach, gender tengligini ta’minlash borasidagi xalqaro bosim yanada kuchaydi. Ayollarning teng imkoniyatlar talab qiluvchi harakatlari kuchayib borgani sari, Koreya hukumati ham ayollar maqomini yuksaltirishga qaratilgan milliy siyosatni shakllantira boshladi. 1995-yilda ilk bor “Ayollar rivojlanishi to‘g‘risida”gi asosiy qonun qabul qilingan. Keyinchalik ushbu qonun modernizatsiya qilinib, 2014-yilda “Gender tengligi to‘g‘risidagi asosiy qonun” nomi bilan qayta qabul qilindi. Ushbu hujjatlar ayollarning davlat boshqaruvi va diplomatik xizmatdagi faoliyatini kengaytirishga xizmat qilgan dastlabki muhim huquqiy asoslar hisoblanadi. Shu doirada Koreya ayollarni rivojlantirish instituti tashkil etildi, Ayollar siyosati bo‘yicha Milliy qo‘mita yaratildi hamda mavjud ma’muriy tuzilma tarkibida ayollar masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘limlar ochildi. Tashqi ishlar vazirgili qoshida Koreya miliy diplomatiya akademiyasi tashkil etilgan bo‘lib, akademiya konslerlari tomonidan diplomatik kardlar tayyorlashga alohida ahamiyat beriladi. Ayrim ayol elchilar keyinchalik akademiya faoliyatini davom ettirib, o‘zlaridan keyingi boshqa ayol elchilarni yetishtirib chiqarishga hissa qo‘shishmoqda [2]. Mehnat masalasida gerder jihatdan tenglikni ta’minlash uchun qilingan harakatlar keyinchalik diplomatiyada ham qo‘llanila boshlangan va bu diplomatik missiyalarda ayollar ishtiroki oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Koreya Respublikasi gender tengligini ta'minlash va ayollar huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarni izchil qo'llab-quvvatlab kelmoqda. 1984-yilda mamlakat Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyani (CEDAW) ratifikatsiya qilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ushbu konvensiya doirasida sakkizta milliy hisobot taqdim etgan. Shuningdek, 2006-yilda Konvensiyaning fakultativ protokoliga qo'shilgan.

Koreya Respublikasi BMT tizimidagi gender masalalariga oid muhokamalarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, mamlakat BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi huzuridagi Xotin-qizlar maqomi bo'yicha komissiya (CSW) a'zosi sifatida faoliyat yuritgan hamda "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" kun tartibi doirasidagi 1325-sonli rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlagan. Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasi va Inson huquqlari kengashi tomonidan ayollarga nisbatan zo'rvonlik va diskriminatsiyani bartaraf etishga qaratilgan rezolyutsiyalar hammuallifi sifatida qatnashgan. Koreya hukumati gender tengligi va ayollar imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha BMT tuzilmasi tashkil etilishini faol qo'llab-quvvatlagan va 2010-yilda tuzilmaning ilk Ijroiya kengashi a'zolaridan biri etib saylangan. Mamlakat hozirga qadar ushbu kengash faoliyatida muntazam ishtirok etib kelmoqda (amaldagi muddat: 2023–2025). Shuningdek, 2012-yilda kengash prezidenti va 2018-yilda vitse-prezidenti vazifalarini bajargan. Shu bilan birga, Koreya Respublikasi BMT doirasida gender tengligini rivojlantirishga qaratilgan "Gender tamoyillarini davlat siyosatining barcha yo'nalishlariga tizimli integratsiya qilish" siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Shu maqsadda 2015-yilda rasmiy rivojlanish yordami (ODA) loyihalariga gender yondashuvini integratsiya qilish bo'yicha qo'llanma ishlab chiqilgan, 2017-yilda esa gender tengligi strategiyasini amalga oshirish bo'yicha besh yillik "yo'l xaritasi" qabul qilingan.

Bundan tashqari, Koreya Respublikasi "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" kun tartibi doirasidagi xalqaro muhokamalarda faol ishtirok etishni davom ettirib, qurolli mojarolar davrida zo'rvonlikni bartaraf etish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamqda. Shu maqsadda 2018-yilda "Ayollar ishtirokidagi tinchlik harakatlari" nomli yangi tashabbus ishga tushirilgan [3]. Mazkur tashabbus ayollarning tinchlikni ta'minlash uchun muzokarlarda ishtirok etishi mumkinligini ilgari suradi.

Qolaversa, Koreya Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar rejasini" da jamiyat bo'ylab gender xilma-xilligini oshirish masalasi muhim o'rinni egallagan. Bundan maqsad ayollarning siyosiy boshqaruv sohadagi ulushini oshirish va inklyuzivlikni kuchaytirish hisoblanadi. Reja asosida tashkil etilgan Gender tengligi va oila vazirligi 2017-yil noyabr oyida tashkil etilgan Ayollar Liderlarini Tayinlash Rejasini (2018-2022) puxta amalga oshirish va boshqarish orqali ayollarning davlat sektoridagi ishtiroki va vakilligini oshirish uchun

institutsional asosni mustahkamlaydi. Ayollar Liderlarini Tayinlash Rejasi vazirliklararo qo'shma reja bo'lib, u yuqori lavozimli davlat xizmatchilari, markaziy va mahalliy hokimiyat organlarida direktor darajasidagi amaldorlar, davlat tashkilotlari rahbarlari, hukumat qo'mitasi a'zolari, direktorlar, direktor o'rinbosarlari va milliy universitet professorlari, harbiy va politsiya xodimlari kabi 12 ta yirik davlat xizmatchisi uchun ayollarni tayinlash maqsadlarini belgilaydi va ilgari suradi [4]. Bu reja vazirliklararo reja bo'lganligi uchun bevosita Tashqi ishlar vazirligida ayollar faoliyatini oshirishni ham qamrab oladi.

Janubiy Koreya ayollari va diplomatiyaga oid ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar ham mavjud bo'lib, ular o'z ilmiy ishlarida Koreya Respublikasi diplomatik tizimida ayollarning o'rni va ahamiyati to'g'risida ayrim fikr-mulohazalarni bildirib o'tishgan. Xususan, Cho San Hun "The New York Times" gazetasida 2010-yilda chop etgan "Koreyalik ayollarning hukumatga kirib kelishi" nomli maqolasida Janubiy Koreyada diplomatik sohada ayollarning o'sib borayotgan o'rnini tahlil qilgan. Unga ko'ra, 1992-yilda Janubiy Koreya Tashqi ishlar vazirligi imtihonida qatnashgan ayollar soni juda kam bo'lgan va aynan uch nafar ayolning diplomatik xizmatga qabul qilinishi jamiyatda katta hayrat uyg'otgan. O'sha davr uchun "uch nafar ayol"ning muvaffaqiyat qozonishi ham juda katta ko'rsatkich sifatida baholangan. Muallif, shuningdek, so'nggi besh yil ichida diplomatik korpusga qabul qilingan ayollar ulushi bilan erkaklar ulushi o'rtasidagi katta tafovutga ham e'tibor qaratadi. 1992-yildagi 3,2 foizlik ko'rsatkichning 2009-yilga kelib 47 foizga yetgani Janubiy Koreya diplomatiyasi qiyofasini sezilarli darajada o'zgartirdi. Bu holat jamiyatning ayollarning yuqori lavozimlarda faoliyat yuritishiga nisbatan noto'g'ri qarashlari o'zgarayotganini hamda diplomatik sohada gender tengligi tomon katta qadam tashlanganini ko'rsatadi [5]. Shu bilan birga, bu Janubiy Koreya ayollarining diplomatiya va rahbarlik pozitsiyalaridagi roli tobora kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

Bu ijobiy qarash boshqa olim va tadqiqotchilar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, Australiya Milliy Universitetida faoliyat yuritib kelayotgan Gek Hermans 2006-yilda yozgan "Janubiy Koreya siyosatida ayollar: tenglik sari uzoq yo'l" maqolasida XXI asrda Janubiy Koreya siyosatida ayol vakillarning ko'payish sabablarini tadqiq qilgan. Olim Hermansning fikricha, demokratik jarayonlar ayollarning davlat xizmatiga kirishiga ta'sir ko'rsatadi, biroq mavjud gender tengsizligi ularning siyosatga kirishi uchun jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, u Koreya jamiyati uzoq vaqt davomida ayollarning jamiyatdagi o'rnini belgilab bergan an'anaviy qadriyatlardan foydalanganini ta'kidlaydi [2]. Ushbu qarashlarga ko'ra, ayol avvalo turmush o'rtog'i va ona bo'lishi, uy ishlari bilan shug'ullanishi kerak, davlat xizmatlari yoki siyosiy faoliyat esa uning asosiy vazifasi sifatida qaralmagan.

**Muhokama.** Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreyada ayollarning oliy ma'lumotga ega bo'lishiga qaramay, 2023-yilda ular barcha sohalarida rahbarlik lavozimlarining atigi 22,1 foizini egallagan. Siyosiy vakillik ham shunga o'xshash nomutanosiblikda qolmoqda, 2025-yil aprel holatiga ko'ra, ayollar Milliy Assambleyadagi o'rinlarning atigi 20 foizini egallagan [6]. Bu ko'rsatkich Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik vakolatxonalarida kam foizlarni tashkil etadi. Bundan tashqari, 2024-yilgi Global gender tafovuti hisobotida mamlakatlar bo'yicha gender tengligi reytingida Janubiy Koreya so'rovda qatnashgan va 146 mamlakat orasida 94-o'rinni egalladi. Janubiy Koreyaning gender tengligi indeksi 69,6% ni tashkil etdi, bu o'tgan yilgi 105-o'rindan (68,0%) 11 pog'ona yuqoriga ko'tarilgan. So'rovnoma to'rtta toifa bo'yicha o'tkazildi – iqtisodiy ishtirok etish imkoniyatlari, ta'lim olish darajasi, sog'liqni saqlash va omon qolish hamda siyosiy vakolatlar. Janubiy Koreyaning siyosiy sohada o'tgan yilgi 88-o'rindan (gender tengligi indeksi 16,9%) 72-o'ringa (22,3%) ko'tarilishi umumiy reyting o'zgarishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan. Biroq, siyosiy sohada ayol qonun chiqaruvchilarning ulushi juda past bo'lib, 23,8% ni tashkil etdi va dunyo bo'ylab 103-o'rinni egalladi. Janubiy Koreyaning iqtisodiyot (112-o'rin), ta'lim (100-o'rin) va sog'liqni saqlash (47-o'rin) sohalaridagi reytinglari bu yil minimal o'zgarishlarni ko'rsatgan [7]. Bu shuni anglatadiki, Janubiy Koreyada gender tengligini ta'minlash nafaqar diplomatik sohada, balki boshqa masalalarni ham qamrab olgan. Kichik sohalaridagi tenglikni ta'minlash yuqori pog'onalarda gender jihatdan tenglikka erishishni osonlashtiradi.

2010-yil oxiridagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Koreya Respublikasidagi 1564 nafar diplomatning 297 nafari ayollar bo'lgan, ya'ni ayollar ulushi 19 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bir yil ichida 2,6 foizga oshgani qayd etilgan [8]. 2011-yilga kelib Koreya Tashqi ishlar vazirligidagi 2070 nafar xodimning 607 nafari ayollar bo'lgan va ular vazirlik tizimining qariyb uchdan bir qismini tashkil qilgan. Shu davrda diplomatik xizmat imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tuvchilarning 50 foizdan ortig'i ayollar ekani qayd etilgan [9]. Bu so'nggi yillarda Janubiy Koreya diplomatiyasida ayollar ulushi yanada ortib borayotganligini anglatadi. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, Koreya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining 49,2 foizini ayollar tashkil qilmoqda. 2021-yilda bu ko'rsatkich 45,1 foiz bo'lgan bo'lsa, har yili o'sib borgan. Biroq, yuqori rahbarlik lavozimlarida gender tengsizligi hali ham saqlanib qolmoqda. Masalan, 2025-yilda yuqori darajadagi 244 nafar diplomatning faqat 25 nafari ayollar bo'lgan, xorijdagi 173 diplomatik vakolatxona rahbarlaridan esa atigi 7 nafari ayollar hisoblangan [10]. Bu ko'rsatkichlar, albatta, Kan Gyonxva, O Xyon Ju, Li In Xo va yana bir nechta ayol diplomatlarning faoliyatlari bilan belgilanadi.

**Janubiy Koreya diplomatiyasida ayollar ulushi**


№	Diplomatik yo‘nalish	Ayollar ulushi (% da)	
		2000-yy	2024-25-yy
1.	Oliy martabali elchilar	4,9	0,5-1
2.	Milliy Assambleya	9	20
3.	Tashqi ishlar vazirligi	6,4	10-12
4.	Diplomatik vakolatxonalar	70,7	25-31
5.	Xalq diplomatiyasi	60-65	20-25

Mazkur jadvaldagi ma’lumotlar 2000-yillardan 2025-yilgacha bo‘lgan davrdagi Janubiy Koreya diplomatik sohasidagi ayollar ulushining statistik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ayollarning norasmiy va quyi martabali diplomatik faoliyatda ishtiroki so‘nggi yigirma yil ichida ikki barobar ko‘tarilgan. Shu bilan birgalikda, Tashqi ishlar vazirligidagi ayollar va oliy martabali ayol elchilar ko‘rsatkichi ham yillar kesimida solishtirganda ko‘paygan, lekin ma’lumotlar gender tafovuti hali ham katta ekanligini ko‘rsatadi.

**2-jadval****Koreya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi umumiy xodimlari tarkibida ayollar ulushi**

[10]

Yil	Ayollar soni	Umumiy xodimlar soni
2021	1,137 (45,1%)	2,519
2022	1,163 (45,9%)	2,535
2023	1,171 (47,0%)	2,491
2024	1,197 (48,3%)	2,478
2025-yil avgust holati	1,195 (49,2%)	2,429



Mazkur jadvallarda esa Koreya Respublikasi diplomatik xizmatdagi ayollar ulushining yillar davomida oshib borganligi ko'rsatilgan. Keltirilgan ma'lumotlar mamlakatda ayollarning umumiy jihatdan diplomatik tizimdagi ishtiroki ortayotganligini ko'rsatadi, ammo bu global darajada boshqa davlatlar kesimida solishtirganda ancha past pog'onani egallaydi. Xususan, 2024-2025-yillarda chiqqan "Diplomatiyada ayollar indeksi" jurnalida Koreya Respublikasi quyidagi o'rinlarni egallagan:

2024-yildagi ayol elchilar ko'rsatkichi [1]

### Ilova 1: 2024-yilda ayol elchilarining ulushi (%) bo'yicha davlatlar reytingi (saralangan)

O'rin	Davlat nomi	Ayol elchilarining ulushi (%)	Izohlar (2024)
1	Kanada	53%	
2	Shvetsiya	51%	
3	Finlandiya	50%	
4	Kosta-Rika	48%	
5	Yangi Zelandiya	47,50%	
6	Yamayka	47%	Kichik sonli missiyalar
7	Filippin	46%	
8	Latviya	43%	
9	Niderlandiya	42%	
9	Norvegiya	42%	
10	Janubiy Afrika	41,50%	

O'rin	Davlat nomi	Ayol elchilarining ulushi (%)	Izohlar (2024)
55	Afg'oniston	3%	
55	Iroq	3%	
55	Yaponiya	3%	
55	Qozog'iston	3%	
55	Liviya	3%	
55	O'zbekiston	3%	
56	Ozarbayjon	2%	
56	Kuvayt	2%	
57	Janubiy Koreya	1%	
58	Rossiya	0,75%	
59	Belarus	0%	
59	Fiji	0%	Kichik sonli missiyalar
59	Shimoliy Koreya	0%	
59	Togo	0%	Kichik sonli missiyalar

## 2025-yilgi ayol elchilar ko'rsatkichi [1]

## 2025-yilda ayol elchilar ulushi (reyting)

O'rin	Mamlakat	Ayol elchilar ulushi	Izoh (2025-yil)
1	Beliz	50%	Elchixona soni kam / 2025-yilda yangi qo'shilgan
1	Lixtenshteyn	50%	Elchixona soni kam / 2025-yilda yangi qo'shilgan
1	Yangi Zelandiya	50%	–
2	Niderlandiya	49%	–
2	Norvegiya	49%	–
3	Kanada	48.5%	–
4	Kosta-Rika	48%	–
4	Irlandiya	48%	–
5	Latviya	47%	–
6	Finlyandiya	46%	–
7	Shvetsiya	45%	–
8	Yamayka	44%	Elchixona soni kam
8	Samoa	44%	Elchixona soni kam / 2025-yilda yangi qo'shilgan
9	Avstraliya	43%	–
10	Janubiy Afrika	42%	–

## Eng past ko'rsatkichlar

O'rin	Mamlakat	Ayol elchilar ulushi	Izoh (2025-yil)
51	Mali	5%	–
51	Mavritaniya	5%	–
52	Jibuti	4%	Elchixona soni kam
52	Qatar	4%	–
52	Saudiya Arabistoni	4%	–
53	Turkmaniston	3.5%	–
54	Afg'oniston	3%	–
54	Chad	3%	–
54	Qozog'iston	3%	–
54	Liviya	3%	–
54	Somali	3%	–
54	Janubiy Koreya	3%	–
54	Tojikiston	3%	–
55	Belarus	2.5%	–
56	Quvayt	2%	–
56	Shimoliy Koreya	2%	–
57	Eron	1%	–
57	Rossiya	1%	–
58	O'zbekiston	0%	–

Yuqorida keltirilgan jadvallarda Koreya Respublikasi ayol elchilarning diplomatik sohadagi ishtiroki bo'yicha eng quyi darajalarni egallaganligini ko'rish mumkin. Shuning uchun, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tshkiloti(OECD) ancha vaqtdan beri bu masala yuzasidan Koreya Respublikasiga taklif va tavsiyalar berib kelmoqda. Lekin bu ko'rsatkichlar davlat yetarlicha harakat qilmayotganini anglatmaydi. Hozirgi kunga kelib ayollarni tinchlik muzokaralarida ishtirokini oshirish bo'yicha say harakatlar olib borilmoqda. 1990-yillarda Shimoliy, Janubiy Koreya va Yaponiyadan kelgan ayollar urushdan beri birinchi marta uchrashishgan. "Quyoshli siyosat" o'n yillik davrida (1998-2008), ikki koreys davlati siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni izlagan paytda, yuzlab Janubiy Koreyalik ayollar Shimoliy Koreyalik ayollar bilan uchrashish va muloqot qilish uchun demilitarizatsiya hududidan o'tishgan. 2015-yilda, Koreya yarimoroli bo'linganining 70 yilligi munosabati bilan, dunyoning turli burchaklaridan 30 ta ayol, jumladan, ikki Nobel tinchlik mukofoti sovrindori va feminist olim Gloriya Shtaynem demilitarizatsiya dan hududidan o'tib, Koreya bo'yicha ixtilofli masalalarga tinchlik shartnomasi bilan chek qo'yishga chaqirdilar. Ammo, Koreya masalasi bo'yicha tinchlik jarayonida ayollar juda kam bo'lib, 2000-yil 15-iyunda bo'lib o'tgan Koreyalararo sammitda 24 delegatdan faqat bittasi ayol edi va 2018-yil 19-sentabrda bo'lib o'tgan Koreyalararo sammitda 51 ta delegatdan birortasi ham ayol bo'lmagan [11].

Bundan tashqari ayol diplomatlar xalq diplomatiyasidagi ishtiroki orqali Koreya Respublikasining "yumshoq kuch" siyosatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Xususan, koreys madaniyati – K-pop, kino, serial va koreys tilini dunyoga targ'ib qilishda diplomatik vakolatxonalar faol ishtirok etmoqda. Madaniy diplomatiya, ta'lim almashinuvi va xalqaro forumlarda ayol diplomatlarning kommunikativ yondashuvi Janubiy Koreyaning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ayol diplomatlar inson huquqlari, gender tengligi va gumanitar diplomatiya masalalarida ham faol ishtirok etmoqda. Koreya Respublikasi BMT Ayollar tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirib, ayollar huquqlari va gender siyosatini qo'llab-quvvatlamogda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Koreya Respublikasi diplomatik tizimda ayollarning erkaklar bilan bir xil miqdorda faoliyat olib borishi uchun harakat qilmoqda. Mazkur harakatlar gerder diplomatiyasini rivojlantirish uchun qabul qilingan qonun hujjatlari, xalqaro shartnomalar, ishlab chiqilgan maxsus dasturlar va amaliy chora-tadbirlarda o'z aksini topgan. Yuqorida keltirilgan infografik-tahliliy ma'lumotlar esa buning yorqin misolidir. Ko'rsatkichlar hali ham gender tafovutlarini, shuningdek, global darajada bu natijalar unchalik yaxshi emasligini ko'rsatib beradi. Koreya Respublikasi diplomatiyada gender tengligini ta'minlash borasida hali peshqadam davlatlar safiga qo'shilmagan bo'lsa ham, bu boradagi reja va tashabbuslar, xususan,

ayollarni xalq diplomatiyasidagi, rasmiy muzokaralardagi, tinchlik kengashlaridagi, global masalalarni hal qilishdagi va davlatning diplomatik organlaridagi ishtirokini oshirish borasidagi harakatlar to‘xtab qolgani yo‘q va bu davom etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sara Ch. (2024) 2024 Women in Diplomacy Index. Anwar Gargash Diplomatic Academy. – P.1.
2. Kim I. (2012) Developments and Characteristics of Gender Politics in South Korea: A Comparative Perspective. Korea Observer. – Vol. 43, No. 4. – P.565.
3. Republic of Korea. Ministry of Foreign Affairs. Official website of the Ministry of Foreign Affairs. Retrieved from [https://www.mofa.go.kr/eng/wpge/m\\_5648/contents.do](https://www.mofa.go.kr/eng/wpge/m_5648/contents.do)
4. Open Government Partnership. (2021) Republic of Korea Action Plan 2021–2023. Retrieved from <https://www.opengovpartnership.org/documents/republic-of-korea-action-plan-2021-2023/>
5. Tran Th.H. (December, 2014) The Changing Role of Women in Diplomacy in the 21st Century – The Case of South Korea. International Relations Insights & Analysis. – pp.13-14.
6. Gender politics and right-wing politics clash in South Korea. (23 July, 2025) East Asia Forum. Retrieved from <https://eastasiaforum.org/2025/07/23/gender-politics-and-right-wing-politics-clash-in-south-korea/>
7. 한승동 에디터. (2024) 세계경제포럼 발표 남녀평등 한국 146 국 중 94 위. 상업광고 없는 민들레 후원하기. <https://www.mindlenews.com/news/articleView.html?idxno=8599>
8. Park J.V. (11 September, 2019) Female diplomats filling posts dealing with major countries. The Korea Times. Retrieved from [https://www.koreatimes.co.kr/www/nation/2019/09/113\\_89677.html](https://www.koreatimes.co.kr/www/nation/2019/09/113_89677.html)
9. Female diplomats lead lonelier lives than males. (July 17, 2011) Korea JoongAng Daily. Retrieved from <https://koreajoongangdaily.joins.com/2011/07/17/socialAffairs/Female-diplomats-lead-lonelier-lives-than-males/2938995.html>
10. 최해련. (2025) [단독] 외교부 공무원 절반은 여성 ... 고위직은 10% 그쳐. 한국경제. <https://www.hankyung.com/article/202509245403i>
11. Why Women Need to Be a Central Part of Creating Peace in Korea. Korea Peace Now! Retrieved from <https://koreapeacenow.org/resources/why-women-need-to-be-a-central-part-of-creating-peace-in-korea-2/>